Globallashuv sharoitida yoshlar ongida milliy ijtimoiy xotira transformatsiyasi

Dodobayeva Gavharxon Ma'murjon qizi
Namangan davlat universiteti, magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv sharoitida yoshlar ongida milliy ijtimoiy xotirada yuz berayotgan transformatsion jarayonlarning ijtimoiy-falsafiy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ommaviy madaniyat, virtual muhit va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar tarixiy ongi hamda milliy qadriyatlariga ko‘rsatayotgan ta’siri yoritilgan. Tadqiqotda milliy ijtimoiy xotiraning yoshlar ma’naviyati, milliy identiklik va avlodlararo vorisiylikni shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy asosda ochib berilgan. Muallif tomonidan globallashuv jarayonida milliy ijtimoiy xotirani saqlash, yoshlar ongida tarixiy tafakkurni mustahkamlash hamda ma’naviy immunitetni rivojlantirishga oid ilmiy xulosalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, milliy ijtimoiy xotira, yoshlar ongi, transformatsiya, tarixiy ong, milliy identiklik, ma’naviy qadriyatlar, avlodlararo vorisiylik, ommaviy madaniyat, virtual muhit, ijtimoiy tarmoqlar, ma’naviy immunitet, ijtimoiy-falsafiy tahlil.

Annotation: This article analyzes the socio-philosophical aspects of the transformational processes occurring in the national social memory of young people under the conditions of globalization. It also highlights the influence of modern information and communication technologies, mass culture, the virtual environment, and social networks on the historical consciousness and national values of youth. The study scientifically substantiates the importance of national social memory in shaping the spirituality, national identity, and intergenerational continuity of young people. The author puts forward scientific conclusions regarding the preservation of national social memory in the context of globalization, strengthening historical thinking among youth, and developing spiritual immunity.

Keywords: globalization, national social memory, youth consciousness, transformation, historical consciousness, national identity, spiritual values, intergenerational continuity, mass culture, virtual environment, social networks, spiritual immunity, socio-philosophical analysis.

Аннотация: В данной статье анализируются социально-философские аспекты трансформационных процессов, происходящих в национальной социальной памяти молодежи в условиях глобализации. Также освещается влияние современных информационно-коммуникационных технологий, массовой культуры, виртуальной среды и социальных сетей на историческое сознание и национальные ценности молодежи. В исследовании научно обосновано значение национальной социальной памяти в формировании духовности молодежи, национальной идентичности и межпоколенческой преемственности. Автором выдвинуты научные выводы, касающиеся сохранения национальной социальной памяти в условиях глобализации, укрепления исторического мышления молодежи и развития духовного иммунитета.

Ключевые слова: глобализация, национальная социальная память, сознание молодежи, трансформация, историческое сознание, национальная идентичность, духовные ценности, межпоколенческая преемственность, массовая культура, виртуальная среда, социальные сети, духовный иммунитет, социально-философский анализ.

KIRISH (Introduction). Bugungi globallashuv jarayonlari insoniyat hayotining barcha jabhalariga, jumladan, jamiyatning ma’naviy hayoti, tarixiy tafakkuri va milliy qadriyatlar tizimiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, virtual makonning kengayishi hamda ommaviy madaniyatning kuchayishi yoshlar ongida milliy

ijtimoiy xotiraning shakllanish va rivojlanish jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu esa milliy tarixiy ong, ma’naviy meros va avlodlararo vorisiylik masalalarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan chuqur tadqiq etishni taqozo etadi.

Milliy ijtimoiy xotira xalqning tarixiy tajribasi, ma’naviy qadriyatlari, milliy o‘zligi va tarixiy merosini o‘zida mujassamlashtiruvchi muhim ma’naviy hodisa hisoblanadi. U yosh avlodning milliy identikligini shakllantirishda, vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlashda hamda jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois yoshlar ongida milliy ijtimoiy xotiraning transformatsion xususiyatlarini tahlil qilish bugungi kunning dolzarb ilmiy muammolaridan biri sanaladi.

Globallashuv jarayonida turli madaniy ta’sirlar, axborot oqimlari va virtual kommunikatsiya vositalari yoshlarning tarixiy xotira, milliy qadriyatlar hamda an’anaviy ijtimoiy qarashlarga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirmoqda. Natijada ayrim hollarda milliy o‘zlikdan uzoqlashish, tarixiy ongning zaiflashuvi yoki ma’naviy begonalashuv kabi holatlar yuzaga kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, milliy ijtimoiy xotirani saqlash, uni yoshlar ongiga singdirish va zamonaviy sharoitga mos ravishda rivojlantirish muhim ijtimoiy-falsafiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Mazkur maqolada globallashuv sharoitida yoshlar ongida milliy ijtimoiy xotirada yuz berayotgan transformatsion jarayonlar, unga ta’sir etuvchi omillar hamda milliy tarixiy ongni mustahkamlashning ijtimoiy-falsafiy jihatlari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. (Literature Review). Jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida mamlakat milliy tarixiga bo‘lgan ijtimoiy munosabat so‘ngi yillarda tubdan o‘zgaradi. O‘zbekistonda milliy tarixni o‘rganish borasidagi ishlar samaradorligini oshirishga e’tibor kuchayib borayotganligi, buyuk mutafakkirlar ilmiy ijodini tadqiq etuvchi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlarini tuzish to‘g‘risidagi qarorlar, shuningdek, har tomonlama yetuk, vatanparvar avlodni tarbiyalash maqsadiga qaratilgandir. “Xususan, milliy o‘zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash”[1] muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Inson xotirasi haqidagi dastlab qarashlar Sharq mutafakkirlari va Yunon faylasuflari ta’limotlarida uchraydi. Xususan, Forobiy xotirani bilishdagi aqliy jarayonning tarkibiy qismi sifatida qarab, uning faqat insonga emas, hayvonga ham xos xususiyat ekanini”[2,611] ta’kidlaydi. Psixologiyada xotira “atrof muhitdagi voqelikni bevosita va bilvosita, ixtiyorsiz va ixtiyoriy ravishda, passiv va aktiv holda, reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yul bilanaks ettirgan holda esda olib qolish, esga tushirish, unutish xamda tanish, eslashdan iborat ruhiy jarayon”[2,612] sifatida talqin qilinadi. Manbalarda ijtimoiy xotiraga ko‘plab ta’riflar berilgan. Masalan, “ijtimoiy xotira – to‘plangan ijtimoiy tajriba" ni yangi avlodlarga o‘tkazish uchun hozirgi paytda muhim bo‘lgan ijtimoiy bilimlarni boshqaradigan va o‘tmish haqidagi ma’lumotlarga aylantiradigan ijtimoiy-madaniy usullar va institutlar tizimi sifatida tushuniladi.” [3]

Ushbu ta’rifda ijtimoiy xotira sotsial institut sifatida baholanadi. Ammo u to‘plangan ijtimoiy tajriba bilan cheklanib qolmay balki, bir vaqtni o‘zida o‘tmish tajribalari bilan ham uzviy aloqani davom ettirib ham yangilanib turadi. Sotsiolog olim Sergey Kravchenko “ijtimoiy xotira - ijtimoiy amaliyotlar, qadriyat yo‘nalishlarining avloddan-avlodga o‘tishi, bu ijtimoiy ongni rivojlantirishda uzluksizlikni, odamlarning xatti-harakatlaridagi qonuniyatlarni ta’minlaydi” [4,274] deb hisoblaydi. Bu ta’rifda esa, ijtimoiy xotiraning faoliyat turi sifatida qaralmoqda. Aslida, “biz xotirlash deganda katta ma’noni tushunamiz. Avvalo xotirasiz kelajak yo‘q. O‘zingiz o‘ylang, insonning xotirasi bo‘lmasa, u o‘z kelajagini qanday tasavvur qiladi? Agar xotira bo‘lmasa, ota-bobolarimiz to‘plagan kerakli bilim va tajribalarni bilmasdan, xar kuni, har qadamda yangi-yangi muammo va g‘ov-to‘siqllarga duchor bo‘lar edik... Odamzod o‘zining kechagi kunini xotirlay olsagina, o‘tmishdan zarur saboq va xulosalar chiqarib, ongli hayot kechirishi mumkin.” [5, 291-292]

Shuningdek, “ijtimoiy xotira o‘tmish haqidagi umumiy g‘oyalar, guruh a’zolarining tarix haqidagi bilimlari uchun asos yaratadi va qat’iy sxematik tasvirlarda (ob’ektiv xotira) ham, ijtimoiy

amaliyotda ham o‘z ifodasini topadi, yoki jamoaviy harakatlar”[6] deb tushuntirilgan. Aslida ijtimoiy xotira faqat o‘tmish haqidagi bilimlar yoki umum g‘oyalar asosida shakllanmayd balki, kundalik turmushdagi ijtimoiy tajriba natijasida vujudga keladi. “Zamonaviy dunyoda ijtimoiy xotira institutlaridan, birinchi navbatda, siyosat va davlat arboblari ham jamiyat ichida, ham xalqaro maydonda sodir bo‘layotgan turli jarayonlarni boshqarishda faol foydalanmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR (Analysis and results). Jamiyatda milliy ijtimoiy xotiraning shakllanishi mexanizmlari uch bosqichni tashkil etadi. Bular, **birinchi bosqichida** asosiy rolni urug‘, qabila, jamoa bajaradi va u jamoaning umum xotirasini shakllantirilib jamoalar, urug‘lar va qabilalarni birlashtirgan bosqichdir, ammo bu xotiraning dastlabki mukammallashmagan shakli hisoblanadi; **ikkinchi bosqich**, urug‘ jamoalarning kattalashishi va jamiyat hamda davlat tuzulmalarini vujudga kelishi. Bunda ma’lumotlar manbasi ko‘payib jamiyat a’zolarini tarbiyaviy, ahloqiy, g‘oyaviy, voqea va hodisalarni saqlash va orttirib borishini ta’minlaydi; u**chinchi bosqich**, bunda ijtimoiy xotira jamiyatning maqsadiga qaratiladi hamda jamiyat a’zolarida tarixiy madaniyat shakllanadi, axborot manbalari yaratiladi, bunda kutubxona, arxiv,muzeylar muhim o‘rin egallaydi.

Globallashuv sharoitida ijtimoiy-ma’naviy hayot dinamikasida kuzatilayotan o‘zgarishlar milliy qadriyatlarning ijtimoiy o‘ziga xos institutsional (jamoaviylik, jamoatchilik nazorati, fuqaroviy burch, ijtimoiy birdamlik) xususiyatlarining relyatsion ta’siri orqali, jamiyat milliy o‘zligini identifikatsiyalaydi. Shu bois, jamiyatni anglash insonda yetuk ongni talab etadi. Falsafada ijtimoiy ong shakllari ijtimoiy munosabatlar negizida va jarayonida vujudga keladi hamda rivojlanadi deb izohlanadi. Chunonchi, uning milliy ijtimoiy xotirani shakllantirish bilan bog‘liq shakli tarixiy ong bo‘lib, u dastlab o‘tmish ajdodlari tomonidan yaratilgan merosning haqidagi ayrim bilimlar, sodda tasavvur va baholar, an’ana va urf-odatlarning qorishig‘idan shakllanadi. Tarixiy ong insonning yer yuzida yashay boshlagan davrlaridanoq vujudga kelib, rivojlanib borgan va doim o‘zgaruvchan xususiyatga ega bo‘lgan. U shunday tuzilganki, har qanday yangilik unda aks etadi. Tarixiy ongning mukammal bo‘lishida uning barcha elementlarining faolligi juda muhim. Xususan, tarixiy qarash bilan birga tarixiy idrok va tarixiy tasavvurning ishtirokisiz tarixiy ong shakllanishi mumkin emas.

Jahon miqyosida tarix, tarixiy ong haqida fikr yuritganda XX asrning 90-yillaridan boshlab o‘tgan yigirma yildan ortiq davr mobaynida insoniyatning ijtimoiy-ma’naviy hayotida tub burilish bo‘lganini, g‘oyaviy, mafkuraviy sohada yangi “aktor”lar, ya’ni yangi kuch va guruhlar, yo‘nalish va mayllar yuzaga kelganini qayd etish lozim. Sobiq sovet ittifoqi hamda sotsialistik lager o‘z umrini yashab bo‘lgach, bipolyar – ikki qutbli dunyo ko‘p qutbli dunyoga aylandi, jahon miqyosidagi mafkuraviy qarama-qarshilik barham topgach, endi g‘oyaviy hayotni qanday qonuniyatlar egallaydi, degan bir qator savollar ko‘ndalang bo‘lgan hamda turli qarash va fikrlar bildirilgan edi. Masalan, amerikalik siyosatshunos Frensis Fukuyama “Tarixning intihosi”[7,4] asarida “Endi dunyo taraqqiyotida yangi davr boshlandi, kapitalizm kommunizm ustidan uzil-kesil g‘alaba qozondi, bundan keyin faqat stabil hayot bo‘ladi” deb taxmin bildirdi. Boston universiteti professori Samyuel Xantington “Sivilizatsiyalar konflikti”[8,45] (Tamaddunlar nizosi) konsepsiyasini olg‘a surib, endi ijtimoiy-siyosiy tizimlar orasidagi emas, turli sivilizatsiyalar o‘rtasidagi ziddiyat davr ruhini belgilab beradi, degan g‘oyani maydonga tashladi. U jahon maydonida hal qiluvchi ahamiyatga molik sivilizatsiyalar qatoriga G‘arb (Yevropa va Amerika), Rossiya, Xitoy, Hindiston, Yaponiya hamda musulmon tamaddunlarini kiritdi. XX asrning 2-yarmidan boshlangan umuminsoniy ma’naviyatga nisbatan tinimsiz uyushtirilayotgan xurujlar natijasida g‘arbda, yevropa va amerikada qadim zamonlardan beri ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan an’analarga jiddiy putur yetmoqda. Ota-bobolari yurgan yo‘ldan yurish, ular qilgan ishni qilish go‘yo erkning bo‘g‘ilishi, qoloqlik alomati deb talqin qilish xolatlari kuzatilmoqda. Natijada, urf-odat va an’analar qanchalik unutilsa, demokratiyaning yutug‘i shu qadar salmoqli bo‘ladi, degan soxta tasavvurlar domiga tushgan yosh avlod barcha jabhada – kiyinishdan tortib, soch turmaklashgacha, jamiyatda o‘zini tutishidan tortib hayotiy mo‘ljallarini shakllantirishgacha “o‘z” ko‘chasini ocha boshladi. Yevropaga hos ba’zi – bir hususiyatlarning kirib

kelishi milliyligimizga, ma’naviyatimizga salbiy ta’sir etishi mumkin. Buning natijasi o‘tmish qadriyatlarini unitilishiga olib keladi.

Darxaqiqat dunyo sivilizatsiyalarining rivojlanishida har bir davlatning o‘rni, uning ma’naviyati milliy tarixi bilan chambarchas bog‘liq.

O‘zbekistonning jahonda tutgan o‘rni hamda salmoqli tarixi masalalariga esa Zbignev Bzejinskiyning “Katta shaxmat taxtasi”[9,127], Leonid Levitinning “O‘zbekiston tarixiy burilish pallasida”[10,13] asarlarida ham katta e’tibor qaratilgan.

Tarixiy ong, tarixiy xotira hozirgi davrga kelib umuminsoniy ma’naviy hayotdagi global muammoga aylandi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Muayyan geosiyosiy kuchlar butun olam bo‘ylab axloqsizlik residivlarini yoyishga, qadimdan yashab kelayotgan olijanob an’analarni tahqirlashga, tarixni soxtalashtirib, yoshlar va kattalar orasidagi vorisiylikka raxna solishga urinmoqda. Shu asnoda, tarixiy ong shakllanadigan sotsial-demografik zamin – yoshlar, shu jumladan ularning eng faol qismi – butun dunyoda ham, bizning mamlakatimizda esa, mutloq ko‘pchilikni tashkil qiladigan o‘quvchi yoshlarda tarixiy ong va tarixiy xotirani shakllantirish muhim vazifalardan biridir.

Inson ongi va qalbi uchun kurash beqiyos kuchaygan so‘nggi davrlarda, g‘oyaviy tazyiq va mafkuraviy hurujlarning ham yangidan yangi qurollari, vositalari ishga solinayotgan bir paytda bularga qarshi immunitetni kuchaytirish, ishonchli “qalqon” hosil qilish uchun ham tarixiy ong va tarixiy xotira bilan bog‘liq yangi tahdidlarni chuqur o‘rganish, mohiyatini anglab yetish kerak. Ma’lumki, hozirgi globallashuv davri milliy o‘zlikni anglashga, milliy tarixiy ongga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ob’ektiv jarayon sifatida sodir bo‘layotgan globallashuvning ma’naviyatga ijobiy va salbiy ta’sirini tadqiq etish, milliy iftixor va g‘ururni yuksaltirishning ilmiy asoslangan mexanizmlarini, texnologiyalarini ishlab chiqish zarurati ham mavzuning dolzarbligini kuchaytiradi. Ma’naviy tahdidlardan faqat himoyalanish emas, ularga qarshi “ma’naviy jasorat” bilan kurasha olish salohiyatini yoshlarda shakllantirish ehtiyoji ham tarixiy ongga, milliy o‘zlikni anglashga nisbatan bo‘layotgan tahdid va xatarlarni chuqur o‘rganishni taqozo qiladi. tarixiy ong buyuk ajdodlari bilan faxrlanish, yaxlit millat ekanini his qilish, jahon sivilizatsiyasi va insoniyat taraqqiyotiga hissa qo‘shish, o‘z mustaqil davlati ravnaqiga hissa qo‘shish salohiyatini tarbiyalaydi va rag‘batlantiradi. Tarixiy ong ma’naviy qudrat beradi, har bir fuqaroni ma’naviy, ruhiy va axloqiy jihatdan yangilaydi. Va shunisi bilan jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

XULOSA. Hozirning ijtimoiy-madaniy muammolariga o‘tmishdagi tajriba, ishlab chiqarish shakllari, turmush tarzi, axloq-odob normalarinigina emas, balki davr imkoniyatlari, talab va ehtiyojlarini hisobga olgan holda yondashmoq lozim. Sababi – shu paytgacha amal qilib kelgan qoidalar, an’analar hamda ularning g‘oyaviy asosi bo‘lgan axloqiy qadriyatlar qayta ko‘rib chiqiladi va qayta baholanadi. Kechagi kun ma’naviy ierarxiyasida yuqori o‘rinni egallab kelgan tarixiy hodisa, holat va shaxslarning o‘rni (bahosi) o‘zgaradi. Tarix esa siyosiy kurash maydoniga va mafkuraviy poligonga aylanadi. Hayot charxpalagi shunday aylanadi, tarixiy taraqqiyot qonuniyatlari shu zaylda amal qiladi. E’tibor berilsa,tarix siyosiy hokimiyat uchun kurashayotgan, o‘z tarafiga iloji boricha ko‘proq ommani jalb qilishga urinayotgan kuchlar, partiya va guruhlar qo‘lida mafkuraviy omil va qurolga aylanib bormoqda. Buni biz dunyoda bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy harakatlarda ham ko‘ryapmiz. Korporativ manfaatlarning ob’ektivlik va ilmiylik prinsiplariga putur yetmoqda. Natijada tarixiy haqiqatni yangitdan xaspo‘shlash, soxtalashtirish, giperbolizatsiya va metafora boshlanmoqda.

Globallashuv sharoitida yoshlar ongida milliy ijtimoiy xotiraning transformatsiyaga uchrashi zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim ijtimoiy-ma’naviy jarayonlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, virtual muhit, ommaviy madaniyat va global axborot oqimlari yoshlarning tarixiy tafakkuri, milliy qadriyatlari hamda ma’naviy qarashlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada milliy ijtimoiy xotiraning mazmuni, shakli va uni qabul qilish mexanizmlarida yangi transformatsion xususiyatlar yuzaga kelmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, milliy ijtimoiy xotira yoshlarning milliy identikligi, tarixiy ongi va ma’naviy dunyoqarashini shakllantiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu bois tarixiy

xotirani saqlash, milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish hamda avlodlararo ma’naviy vorisiylikni mustahkamlash jamiyat barqaror rivojlanishining muhim sharti sanaladi.

Shuningdek, globallashuvning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, yoshlar ongida ma’naviy begonalashuv, tarixiy xotiraning zaiflashuvi va milliy qadriyatlardan uzoqlashish kabi salbiy tendensiyalarni ham yuzaga keltirishi mumkinligi aniqlandi. Shu sababli ta’lim tizimi, oila, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalarining hamkorligini kuchaytirish orqali yoshlar ma’naviy immunitetini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, milliy ijtimoiy xotirani asrash va rivojlantirish yoshlar ma’naviy kamoloti, milliy o‘zlikni anglash hamda jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlashning muhim omillaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 28.12.2018. https://president.uz/uz/lists/view/2228
2. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010. –Б. 611.
3. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%98%D1%81%D1%82%D0%BE%D1
4. Кравченко С.А. Социологический энциклопедический роусско-английский словарь. Москва: Астрель, 2004. –С.274.
5. Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам булмайди. 13-жилд. Тошкент: Ўзбекистон, 2005. –Б.291-292.
6. https://bigenc.ru/c/sotsial-naia-pamiat-fd180a
7. Фукуяма Ф. Конец истории. – М.1990. Б.4
8. Хантингтон С. Конфликт цивилизаций. – М., 1994. Б.45
9. Бзежинский З. Великая шахматная доска. – М., 1998. Б.127
10. Леонид Левитин. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида. – Т., 2000. Б.13
11. Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.-Тошкент: Маънавият, 1998.-Б.9.